

## CONDITIONS OF EDUCATION OF VISUALLY IMPAIRED CHILDREN IN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Khusnuddinova Zulaiho Khamidullayevna

Teacher of the "Special Pedagogy" Department of CSPU

Nuriddinova Madina Oktam kizi

CSPU "Special Pedagogy: Child Pedagogy" 2nd Stage Student

### Abstract:

This article discusses the conditions of involving visually impaired children in inclusive education and teaching in an inclusive educational environment. .

**Keywords:** Inclusive education, types of children with disabilities, education of visually impaired children, referral of visually impaired children to inclusive education and conditions imposed on them.

## KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING SHART-SHAROITLARI

Xusnuddinova Zulayho Xamidullayevna

ChDPU "Maxsus pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

Nuriddinova Madina O'ktam qizi

ChDPU "Maxsus pedagogika: tiflopedagogika" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish va inlyuziv ta'lim muhitida o'qitishning shart-sharoitlari haqida fikr yuritiladi. .

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar turlari, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limga yo'llanilishi va ularga qo'yiladigan shart-sharoitlar.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 18-apreldagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-209-son qarori asosida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'limi uchun ham yangi imkoniyatlar ochilib, yangi shart-sharoitlar yaratilib adolatli ijtimoiy siyosat olib



borilmoqda. Shu bilan birga ularning huquqlari qonun bilan belgilab qo'yilmoqda.

**Inklyuziv ta'lim**—hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir. **Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi** — ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Umumta'lim maktablarida inklyuziya sharoitida ishlovchi o'qituvchilar uchun ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari juda ham muhim. Bolaligidan ko'rish qobiliyati past bolalar ko'zoynak taqishadi, bu ularga atrof-olamda mo'ljal olishida yordam beradi. Zaif ko'ruvchi bolalar ommaviy maktablarda o'qishlari mumkin. Bu uchun ularga maktabdan uyga kelishlarini o'rgatish zarur. Uydan chiqishda bola liftga murojaat qiladi. Zamonaviy liftlarda taktill belgilar mavjud bo'ladi. Kerakli tugmani bosib ko'rish orqali bilish mumkin, chunki unda Brayl alifbosi asosida tugmalar belgilangan. Birinchi qavatdan pastga tushish uchun baland tutqichlar mavjud. Koridorlardagi kirish qismida eshiklar sariq doiralar bilan ko'rsatilgan. Bola turli tovushlarni eshitadi: odamlarning so'zlashuvi, transportning harakati, itlarning vovillashi va h.k. Maktab yo'lida unga yordam beruvchilar juda ko'p. Tushunadiki, yo'ldagi xavfli to'siqlarda unga qavariq nuqtalardan iborat ogohlantiruvchi relyef yo'llari unga yordam beradi. Ular ko'chada chorrahaga kelganini transportning ovoizidan ko'pincha ilg'ab olishadi. Svetoforning maxsus signali bolaga qachon yo'ldan o'tish xavfsiz ekanligini bildiradi. Chorrahadan o'tgandan so'ng bola yo'lning chekkasi sariq yoki yashil rangga bo'yalganini bilish orqali o'zini xavfsiz his qiladi va yo'lida davom etadi. Maxsus qavariq yo'llar bolani maktab hovlisiga tomon eltadi. Sariq qadamlar tasvirlangan zinalar bolaga yuqoriga chiqishda yordam beradi. Sariq doira shaklidagi stikerlar kirish eshigini topishga yordam beradi. Eshik yonida bo'rtma nuqtalar bilan yozilgan "Kirish" so'zi bolani xonasiga kelganini bildiradi. Maxsus taktill belgilar zinalarning qayerda ekanligini va kerakli qavatga qanday ko'tarilish kerakligini ifodalaydi. Zina oldida esa maxsus relyef yo'l boshlanadi. Maktabdagi barcha xonalar bo'rtma nuqtalar bilan belgilangan bo'ladi. O'quvchi sinf xonaning oldiga kelganida maxsus tugmani bosganda xonaning raqami va o'qituvchi ism familiyasini eshitish bilan o'z sinfxonasini topadi.

**Arxitektura muhiti.** Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola qo'shimcha ta'lim muassasasiga kelganida fazoda mo'ljal olish qiyinchiligiga duch keladi. Shuning uchun ushbu rejada maktabdagi qulayligi uchun yordam kerak bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolaga maktabga kirishda mo'ljal olish uchun qarama-qarshi ranglar bilan bo'yalgan zinalar kerak bo'ladi. Bunda to'siqlar albatta zarur. To'siqlar zinapoyaning har ikki tomonida 70-90 sm uzunlikda bo'lishi kerak, kichik sinfdagi bolalar uchun esa 50 sm bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Eng qulay 3-5 sm dan kam bo'lmagan uzunlikdagi dumaloq shakldagi to'siqlardir. Bundan tashqari eshikni yorqin qarama-qarshi ranglar bilan bo'yalgan yaxshiroq. Agar eshiklar shish bo'lsa, u holda yorqin rang bilan bo'yalgani eng qulayidir. **Ta'lim muassasasining ichki maydoni.** Koridorlar bo'ylab tutqichlar o'rnatilganida ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchi qo'shimcha ta'lim muassasasi bo'ylab harakatlanayotganida ulardan foydalanishi unga birmuncha qulaylik bo'ladi. Zaif ko'ruvchi o'quvchi uchun ichki binoda harakatlanishni osonlashtirishning yana bir usuli – bu relyefli pol qoplamalaridir. Bu pol plitkalari



yoki gilam yo'lakchalari bo'lishi mumkin.

**Kiyinish xonasi.** Zaif ko'ruvchi bolalar uchun kiyinish xonasidagi joyni o'tish yo'lidan uzoqroqni tanlash va uni tutqichlar bilan jihozlash lozim. Unda albatta, sumkalar, kiyim-kechaklar uchun javonlar va ilgaklar o'rnatilishi kerak. Bunday joylardan faqatgina bitta odam foydalanishi tavsiya etiladi. Bu joyga bolani ko'proq olib borish bolani bu joylarni eslab qolishiga yordam beradi.

**Ko'zi ojizlar uchun maxsus jihozlar:** bino bo'ylab harakatlanish uchun maxsus hassa, sport zalidagi jihozlar, bolaning balandligiga qarab sozlanadigan o'quv stollari, turli kattalashtirish moslamalari( ish stoli va mobil foydalanish uchun kattalashtiruvchi ko'zoynak), bolaning o'quv joyida qo'shimcha yoritish, yoritish taxtalari.

**O'quvchi jihozlariga qo'yiladigan talablar:** o'quv ko'rgazmali qurollari o'quvchilarni qanoatlantiradigan tarzda terapevtik, oftalmologik, pedagogik talablarga mos bo'lishi kerak.

Umuman olganda, ko'zi ojiz bolalarni inklyuziv muhitda o'qitish ta'lim muassasalarini moslashtirish, malakali mutaxassislarning mavjudligi, o'quv materiallarining mavjudligi va ijtimoiy moslashuvni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi.

#### REFERENCES:

1. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova. "Tiflopedagogika". Chirchiq-2023.
2. 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (<https://lex.uz/docs/-5013007>), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-oktabrdagi 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (<https://lex.uz/docs/-5679836>).
3. Кручинин В.А. Обучение слепых ориентировке в пространстве. -М ., 1992.
4. P.M.Po'latova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika) - G'.G'ulom, 2005-yil.
5. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). T.: G'.G'ulom. 2005 y.
6. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 80-82.
7. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg'ulotlar ish tizimini tashkil etish. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 218-220.
8. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
9. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limga jalb qilingan zaif ko'ruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari, 1(1), 156-157.
10. Dehqonova, M. G., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. Maktab va hayot, 1(3), 31-35.



